



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MORFOLOGIK TAHLILGA O'RGATISH

*DTPI pedagogika fakulteti*  
*boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*  
**Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna**  
*DTPI pedagogika fakulteti*  
*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*  
*3- bosqich 3-BT-21- guruh talabasi*  
**Nazirova Elinur Qarshiyevna**  
**G'afforova Durdona Abdusattorovna**

**Annotasiya:** *Har bir maktab o'quvchisi so'zlarni morfologik tahlil qila olishi kerak. Buni ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish bir oz murakkab jarayon. Ushbu maqoladan boshlang'ich sinf o'quvchilarini morfologik tahlilga o'rgatish haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'zlar:** *Morfologik, tahlil, so'z turkumi, grammatik vositalar.*

Morfologik tahlilning mohiyati so'zning qaysi so'z turkumi ekani, gapda qanday grammatik shaklda kelganida ifodalanadi. To'liq morfologik tahlilda o'quvchi so'z turkumining o'zi o'rgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf o'quvchisi shu so'z qanday savolga javob bo'lishini va nimani bildirishini aytadi (shaxs yoki narsa, narsa belgisi, harakati).

III sinfda so'z turkumlari o'tilgach, morfologik tahlil quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Ot: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Birlik yoki ko'plikda ekanligi.

Sifat: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langanligi.

Fe'l. 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli yoki bo'lishsiz ekanligi.

3. Og'zaki tahlil namunasi: Mevali daraxtlar gulladi. Mevali – sifat, qanday – mevali; daraxtlar oti bilan bog'langan: mevali daraxtlar; daraxtlar – ot, nimalar? – daraxtlar, ko'plikda; gulladi – fe'l, nima qildi? – gulladi, bo'lishli.

IV sinfda o'rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil biroz to'ldiriladi va quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Ot: 1. So'z turkumi. 2. Bosh kelishik shakli. 3. Birlik yoki ko'plikda ekanligi. 4. Egalik qo'shimchasi, shaxs-soni. 5. Kelishigi.

Sifat: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langanligi.

Son: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langanligi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Olmosh: Kishilik olmoshi: 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Shaxs-soni.

4. Kelishigi.

Feʻl: 1. Soʻz turkumi. 2. Soʻrogʻi. 3. Boʻlishli yoki boʻlishsiz ekanligi.

4. Shaxs-soni. 5. Zamoni.

Oʻquvchilar tahlil tartibini bilib olishlari uchun oʻqituvchi bu tartibga rioya qilib soʻzga xarakteristika berishning qulayligini tushuntiradi. Soʻz turkumiga koʻra tahlil ogʻzaki va yozma tarzda oʻtkaziladi: uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. Toʻliq boʻlmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi. Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi oʻzbek tilida soʻz qanday maʼnoli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil III sinfdan boshlanadi. Bu sinfdan oʻquvchilarga oʻzakdosh soʻzlar, oʻzak oʻzakdosh soʻzlarning umumiy qismi ekani, soʻz yasovchi qoʻshimchalar va soʻz oʻzgartuvchi (shakl yasovchi) qoʻshimchalar haqida elementar maʼlumot beriladi.

Soʻz tarkibiga koʻra tahlil quyidagicha oʻtkazilishi mumkin:

1. Soʻzga soʻroq berish va u nimani anglatishini bilish.

2. Oʻzakni aniqlash. Buning uchun soʻzga oʻzakdosh soʻzlar tanlash. Oʻzakdosh soʻzlarni taqqoslash va umumiy qismi (oʻzak)ni aniqlash.

3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlash. Bu yangi soʻz yasash uchun xizmat qilishini aytish.

4. Soʻz oʻzgartuvchi (shakl yasovchi) qoʻshimchani aniqlash. Bu soʻzni boshqa soʻz bilan bogʻlash uchun xizmat qilishini aytish.

III sinfdan "Soʻzning tarkibi" mavzusi toʻliq oʻrganilgach, gulzor soʻzini soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil qilish tartibi quyidagicha boʻlishi mumkin:

1. Qaysi soʻz turkumi ekanini bilaman. Gulzor soʻzi nima? soʻrogʻiga javob boʻladi, narsani bildiradi, bu - ot.

2. Oʻzakni aniqlayman. Buning uchun oʻzakdosh soʻzlar tanlayman: gulzor, gulli, gulsiz, gulla. Ularni solishtirib, umumiy qismini topaman - gul. Bu - oʻzak.

3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman, gulzor soʻzi gul soʻziga -zor soʻz yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan.

4. Bu soʻzda soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimcha yoʻq.

Soʻz tarkibiga koʻra tahlildan soʻng shunday koʻrinish hosil boʻladi: gulzor.

IV sinfdan paxtakorga soʻzini soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil qilish tartibi quyidagicha boʻlishi mumkin:

1. Paxtakorga - ot.

2. Oʻzakni aniqlayman. Buning uchun oʻzakdosh soʻzlar tanlayman: paxtakor, paxtazor. Solishtiraman. Umumiy qism - paxta. Bu - oʻzak.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman: paxtakor soʻzi paxta soʻziga -kor soʻz yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan.

4. Soʻz oʻzgartuvchi (shakl yasovchi) qoʻshimchalarni aniqlayman: -ga - soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimcha, kelishik qoʻshimchasi.

IV sinfdan ishlatilgan soʻzning soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil tartibi:

1. Ishladim - feʼl.

2. Oʻzakni aniqlayman. Oʻzakdosh soʻzlar tanlayman: ishla, ishli, ishsiz, ishchan. Solishtiraman. Umumiy qism - ish. Ish - oʻzak.

3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman: ishla feʼli ish soʻziga -la qoʻshimchasini qoʻshish bilan

yasalgan. -la - feʼl yasovchi qoʻshimcha.

4. Soʻz oʻzgartuvchi (shakl yasovchi) qoʻshimchani aniqlayman: -di - oʻtgan zamon qoʻshimchasi, -m - shaxs-son qoʻshimchasi, I aks, irlik: ishladim.

Soʻz tarkibiga koʻra tahlildan mustaqil mashq sifatida foydalanish ham mumkin. Soʻzni morfologik tahlil qilish uning lugʻaviy maʼnosini tushunishda, morfemalarni toʻgʻri yozishda oʻquvchilarga yordam beradigan muhim vositadir. Boshlangʻich sinflarda grammatik va morfemik tahlil bilan birga, soʻzni tovush-harf tomonidan tahlil qilishdan ham foydalaniladi. Bu tahlilning vazifasi soʻzda tovushlarning tartibini, ularning xarakterli xususiyatlarini, tovushlar va harflar oʻrtasidagi munosabatni aniqlash hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

- 1.S.Mirzayeva "Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi "Toshkent" "Oʻqituvchi" 2012 y.
- 2.K.Qosimova,"Ona tili oʻqitish metodikasi".